

O‘ZBEK YIGITLARINING OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI VA MA’NAVIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN OILAGA TAYYORLIK HOLATI

Akramova Feruza Akmalovna
Psixologiya fanlari doktori, professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19344062>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan ham ma’lumotlar berilishi haqidagi ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, inson kamoloti, baxti, ta’lim, tarbiya.

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ УЗБЕКСКИХ ЮНОШЕЙ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И СОСТОЯНИЕ ДУХОВНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ К СЕМЬЕ

Акратова Феруза Акмаловна

Доктор психологических наук, профессор.

Аннотация: Эта статья освещает информацию о том, как будущая жизнь молодых людей будет благополучной, а также о том, как им будут даны уроки семейной жизни.

Ключевые слова: экономический, социальный, политический, экологический, человеческое развитие, счастье, образование, воспитание.

IMAGES OF UZBEK YOUNG MEN ABOUT FAMILY LIFE AND THE STATE OF SPIRITUAL AND PSYCHOLOGICAL READINESS FOR FAMILY

Akramova Feruza Akmalovna

Doctor of Psychological Sciences, Professor.

Abstract: This article highlights information about how young people's future lives will be prosperous, and how they will also receive information about family life lessons.

Keywords: economic, social, political, ecological, human development, happiness, education, upbringing.

Oila – jamiyatning ajralmas bir bo‘g‘ini bo‘lib, uning inson shaxsi ijtimoiylashuvidagi ahamiyati beqiyosdir. Oila nazariyasida “o‘zaro ta’sir” yoki “jarayon” kabi yondashuvni umumiy tarz foydali konsepsiya sifatida qarash mumkin.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta’minlashning asosiy yo‘li bo‘lgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo‘lmaydigan, jiddiy yondoshishni talab etuvchi davlat miqyosidagi dolzarb masaladir.

Agar xalq eposi va diniy risolalar odamlarda og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga ko‘chib saqlanib kelgan bo‘lsa, xalqning eng donishmandlari va olimlari o‘z qimmatli fikrlarini xalq an‘analariga tayangan holda o‘z asarlarida yoritib, ularni kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar, shunday faylasuf-olimlardan biri Abu Nasr Forobiydir. Uning inson kamoloti, baxti, ta’lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o‘git bo‘lib, axloq nazariyasini boyitdi. Uning ta’limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g‘ayirligi, zulmi yo‘qolgandagina bo‘ladi, oila a’zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru-oqibatlar esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o‘z farzandlari

uchun birlamchi ustoz, yo’l ko’rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta’lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta’siriga ega ekanligi to’g’risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko’rsatadi.

Nikoh oldi omillaridan biri – bu nikoh qurish uchun asos bo’lgan nikoh motivlari hisoblanadi. Oila qurilishida bir necha o’nlab nikoh motivlari mavjud. Lekin ularni umumlashtirilgan ravishda uchta toifaga ajratish mumkin: 1. Sevgi tufayli oila qurish; 2. Moddiy yoki o’zga manfaatdorlik asosida oila qurish; 3. Stereotip bo’yicha oila qurish.

Birinchi toifa motiv, ya’ni sevgi asosida oila qurish, mustahkam nikoh, baxtli oila qurishni ta’minlaydi. Lekin statistik ma’lumotlarga qaraganda, ajralishning aksariyat qismi ham xuddi shu sevishib oila qurgan juftlarga to’g’ri kelar ekan. Chunki o’zaro ahdu-paymon qilganlar oila qurganlaridan keyin, sevgisini himoya qilishni, uni parvarish qilishni unutsa, sevgi nobud bo’ladi, natijada yoshlarning oila, nikoh, sevgi fonida shakllangan tasavvurlari noto’g’ri bo’lib chiqadi va oilaviy hat mustahkamligiga putur yetadi.

Ikkinchi motiv, ya’ni moddiy yoki maqsadlar tufayli oila qurish, oila mustahkamligiga ta’siri oila qurish paytida ko’zlangan niyatlarlarning qay darajada amalga oshirilganligiga bog’liq bo’ladi. Oila qurishdan avval yoshlarning hisobga olgan va ko’zda tutgan narsalarining hammasi ro’yobga chiqaversa, bu motiv ma’lum darajada nikoh mustahkamligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Lekin, oilaviy hayotda hamma narsa oilaviy hayot qurgungacha yoshlar qanday kutgan bo’lsa, o’shanday amalga oshavermaydi. Natijada nizolar va janjallar yuzaga keladi va oila mustahkamligiga putur yetadi.

Uchinchi motiv, stereotip asosida oila qurish, statistik ma’lumotlarga ko’ra turg’un oilalar toifasiga kirar ekan. Bunday oilalarda ajralishlarning soni yuqorida keltirilgan ikki motivga nisbatan kam ko’rsatkichni tashkil etar ekan. Chunki bu oila a’zolari o’z oilasini “hamma qatori” qurishgan. Birgalikdagi hayot tufayli er-xotin orasida ko’nikish, o’rganish, tushunish, moslashish rivojlanib borib, rasmiy, yuridik, emotsional va psixologik jihatdan barqarorlikka erishish kuzatiladi.

Oilani mustahkam bo’lishida oila qurish yoshi muhim hisoblanadi. Psixologik kuzatuvlardan ko’rinadiki, nihoyatda erta (16,17 yoshda) va kech (28, 30 yoshdan keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Erta oila qurish yigitning oila boshlig’i sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Qiz bolaning oila yumushlariga erta jalb etilishi natijasida u bekalik, fiziologik jihatdan esa onalik vazifalariga yetilgan bo’lishi mumkin. Lekin oilada erkakning yoshi kelinning yoshi bilan baravar bo’lishi, yigitning yoshi ko’rsatkichi oila mustahkamligiga ta’sir etadi. Chunki kelin tomonidan u bola sifatida tasavvur etiladi va kuyovni yetarli darajada xurmat qilmasligiga olib kelishi mumkin.

Kech oila qurish ham maqsadli emas. Ayniqsa qizlar uchun oila qurish imkoniyatlarini pasaytiradi. O’ziga turmush o’rtoq tanlashdagi mezonlar soni ortishiga, lekin nomzodlar soni kamayishiga duch keladi. Bu o’z navbatida qiz bola uchun oila qurishni murakkablashtiradi.

Shuning uchun optimal yoshni o’tkazib yubormaslik kerak. Buning uchun ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy yetuklik yoshini tanlansa ma’qul bo’ladi. Bu esa ayrim kuzatuvlardan ko’rinadiki, qizlar uchun 20-yoshdan, yigitlar uchun 24-yoshdan boshlab davrlarga to’g’ri kelar ekan.

Oila mustahkamligini belgilab beradigan omillardan biri nikohga qadar tanishi muddati hisoblanadi. Tanishish muddatining qisqa bo’lishi yoshlarning bir-birlarini fe’l-atvorini, qiziqishlarini, xarakter xususiyatlarini yaxshi bilib olishlariga imkoniyat yaratmaydi va turmush o’rtog’i tanlashda xatoliklarga yo’l qo’yishga olib kelishi mumkin bo’ladi. Shu tarzda ikki yoshning nikohga qadar uzoq yillar davomida bir-birlarini bilib yurishlari tufayli oila qurgandan keyin oilaviy munosabatlarida salbiy effektini yuzaga kelishi ham kuzatiladi. Demak, tanishish muddatining nihoyatda qisqa bo’lishi yoki juda uzoq bo’lishi maqsadga muvofiq bo’lmas ekan.

Psixologik adabiyotlarda bo‘ljak er-xotinlarning bir-birlarini bilishlari uchun yarim yildan bir yilgacha bilish eng ma’qul muddat deb ko‘rsatiladi. Albatta bu muddatni ham ideal deb bo‘lmaydi. Muhimi yoshlar bir-birlarini nisbatan bo‘lsa-da o‘rganishadi va natijada to‘ydan keyin ayrim kamchilik va nuqsonlarini fazilat sifatida ko‘rishni tarkib toptirishadi.

Nikoh mustahkamligiga shuningdek yoshlarning tanishish sharoitlari ham ta’sir etadi. Kimdir o‘qish, ish joyida, kimdir o‘zi, o‘rtog‘i, dugonasi, qarindoshi, sovchilar yordamida, kimdir ko‘chada, transportda, turli kecha, to‘ylar va o‘tirishlarda tanishishadi. Bu barcha sharoit va shartlar ham nikohning mustahkam bo‘lishiga ta’sir etishi kuzatiladi. Nima bo‘lganda ham yoshlardan qarorlarining yetukligi, qat’iyligi, mas’uliyatlilik, javobgarlikning yuqori bo‘lishi talab etiladi.

Yoshlarning o‘z oilaviy hayotlariga doir tasavvurlari ham muhim bo‘lib, ularning qanchalik reallikka yaqin bo‘lishi oilani mustahkamligiga xizmat qiladi. Afsuski, yoshlarning hamma vaqt ham oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki aksariyat xolda reallikdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni imkon qadar hayotda kuzatiladigan past va baland, shirin va achchiq, rohat va tashvish, qorong‘u va yorug‘ tomonlari bo‘lishi muqarrarligiga o‘rgatib borish va bu tomonlar haqida adekvat tasavvurlarni shakllantira olish kerak bo‘ladi.

Buning uchun oila qurish arafasida turgan yoshlarning oilaviy hayot haqidagi fikrlarini bilish zarurati yuzaga keladi. Yoshlarni oilaviy hayotga to‘g‘ri tayyorlash uchun yuqorida qayd etilgan asosiy yo‘nalishlarini o‘rgatish ham muhim masala hisoblanadi. Biz yosh oila quruvchilarning oilaviy hayotdagi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni qanday tasavvur etishlarini o‘rganish maqsadida FXDYO organlariga oila qurish uchun ariza bergan yoshlarga savolnoma bilan murojaat etdik. Kichik savollardan iborat savolnoma Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlari yosh oila quruvchilarida o‘tkazildi. Tadqiqotda FXDYoga ariza bergan yoshlarning 300 nafari – 150 juftlik ishtirok etdilar. Olingan fikrlarni umumlashtirgan xolda olingan natijalarning ayrimlarini keltiramiz.

“Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?” savoli bo‘yicha olingan natijalar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.

“Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?” savoli natijalari

Savol	Tayyorlik darajasi	% hisobida
Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada?	yetarli	28,1
	o‘rta	60,8
	sayoz	5,5
	bilmayman	2,8
	javob berilmagan	2,8

Kuzatilayotgandek, oila qurishga ariza bergan yoshlarning 60,8 foizi o‘zlarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini “o‘rta” darajada baholaydilar. 28,1 foizi “yetarli” javobini ikkinchi o‘rinda namoyon etgan. Bu holat o‘z navbatida yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari o‘rtacha darajada ekanligini o‘zlari tomonidan tan olinishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalarning statistik tahlilidan ko‘rinadiki, yoshlarning oilaviy hayot uchun “Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari”, “Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish”, “Masuliyatli bo‘lish, javobgarlik hissi, boshqarish” kabi jihatlarga e’tibor berishni muhim deb hisoblar ekanlar. Bu borada yoshlarning baxtli yashash uchun nimalarga e’tibor berish zarurligiga oid fikrlari o‘rganildi.

2-jadval.

“Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o‘ylaysiz?” savoli natijalari (% da)

No	Turmush qurishingiz uchun nimalarni bilishim kerak deb o‘ylaysiz?	%
1	Masuliyatli bo‘lish, javobgarlik hissi, boshqarish	13,3
2	Psixologik tayyorgarlik, muomala sir asrorlari	15,0
3	Ikki tomon bir-birini tushunishi	5,0
4	Ma’naviy va jismoniy yetuklik	8,3
5	Mustaqil fikrlash, moddiy mustaqillik	10,0
6	Milliy qadriyatlarni bilish	1,6
7	Farzand tarbiyalash	5,0
8	Oila a’zolarini va er-xotin bir-birini hurmat qilish	10,0
9	Muhabbatni avaylash	5,0
10	Islomiy bilimlarga ega bo‘lish	3,3
11	Uy yumushlarini qilishni bilish	8,3
12	Sabr-bardosh, xayot saboqlarini bilish	15,0

2-jadval natijalari yoshlarning nikohdan keyingi baxtli hayot uchun “Ikki tomon bir-birini tushunish, qo‘llab-quvvatlash”, “Muammoli vaziyatlarda yon bosish, nolimaslik”, “Yaxshi ish, pul, moddiy ta’minlanganlik”, “O‘zaro hurmat va ishonch” kabi jihatlarga e’tibor berishni muhim deb hisoblashlarini ko‘rsatdi.

3-jadval.

“Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?” savoli bo‘yicha natijalar

Savol	Muhim jihatlar	% hisobida
Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?	salomatlikka	77,4
	xuquqiy bilimlarga	23,0
	ma’naviy bilimlarga	47,9
	psixologik bilimlarga	30,4
	diniy bilimlarga	18,4
	boshq.	10,1

3-jadvaldagi natijalarga e’tibor qaratsak, yoshlarning 77.4 foizi oilaviy munosabatlar uchun salomatlik birinchi o‘rinda ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi navbatda “ma’naviy bilimlarga”, uchinchi o‘rinda esa “psixologik bilimlarga” e’tibor berish zarur ekanligi ko‘rinadi.

Bizning fikrimizcha, oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Chunki aynan, ko‘p hollarda turmush qurgan ikki yosh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilimga, zarur ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaslik, qolaversa ikki yoshning bir-birlari hamda oilaviy rollarning taqsimlanishi to‘g‘risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ularning munosabatlarini ijobiy kechishiga va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

«Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi. // “Xalq so’zi” gazetasi. 2017 yil 16 iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2005. – 39 b.
3. Akramova F.A. Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila, maktab, mahalla hamkorligi masalalari.// “Voyaga yetmaganlarni huquqiy himoya qilishning moddiy-protsessual masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami. Toshkent 26 aprel. 25-27-bet.
4. Akramova F.A., Bilolova Z.B. Farzand tarbiyasida oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitning roli.// “ Yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda xotin-qizlarning roli” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami. Jizzax 18-19-may 2018 y. 50-53-betlar.
5. Orziqulova Ch.P. Pedagogical-psychological characteristics of the impact of work-life balance on the turnover of professor-teachers of higher education institutions // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023. – №7. – B. 330-333. (19.00.00; №5).
6. Orziqulova Ch.R. O‘smirlarни o‘z-o‘ziga muhosabatini inklyuziv ta’limda inobatga olish.// “Tafakkur va talqin” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2021. – B. 766-770.
7. Orziqulova.Ch.R. O‘smirlik davridagi antropometrik holatlarning menlikni takomillashuviga ta’siri. //“Psixologiya fani va yoshlarning rivochlanishi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. Toshkent, 2020. – B. 312-316.
8. Akramova F. A. The divorce factors of families and psychological service to the family //International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. – 2020. – T. 81. – №. 01.
9. Akramova, F. A. "The divorce factors of families and psychological service to the family." International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA 81.01 (2020).
10. Akramova, F. A. (2020). The divorce factors of families and psychological service to the family. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA, 81(01).
11. Orzukulova C. Theoretical significance of factors determining mental health //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B11. – C. 62-68.
12. Orzukulova, Ch. "Theoretical significance of factors determining mental health." Science and innovation 2.B11 (2023): 62-68.
13. Orzukulova, C. (2023). Theoretical significance of factors determining mental health. Science and innovation, 2(B11), 62-68.
14. Khayotjonovna D. N. Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family //EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 831-837.
15. Akmalovna A. F. Oilada sog ‘lom psixologik muhit yaratish–dolzarb muammo sifatida //Fan va ta’lim yangiliklari. – C. 23.
16. Akramova F. et al. Life cycle of *Bilharziella polonica* (Trematoda, Schistosomatidae) parasite of semi-aquatic birds in Uzbekistan //Biosystems Diversity. – 2022. – T. 30. – №. 2. – C. 137-142.
17. Akramova F. et al. Schistosomatidae from the trematode fauna of aquatic and semi-aquatic birds in Uzbekistan //Biosystems Diversity. – 2023. – T. 31. – №. 1. – C. 3-9.